



O‘ZBEK XALQ OG‘ZAKI IJODIDA BAXSHILIK SAN’ATI VA DOSTONCHILIK MAKTABLARI

G‘ulomova Begoyim Bektosh qizi
105-guruh talabasi

*SamDU Urgut filiali Tillarni o‘qitish metodikasi
kafedrasi o‘qituvchisi PhD U.Sanaqulov taqrizi ostida*

Annotatsiya Mazkur maqolada o‘zbek xalq og‘zaki ijodida o‘ziga xos san’at hisoblangan baxshilik san’ati va baxshilik maktablari haqida so‘z yuritiladi. Baxshi so‘zining kelib chiqishi, baxshichilikning o‘ziga xos xususiyatlari va uning turli xil talqinlari tahlil etiladi. Baxshilar ijodida dostonchilik an‘anasi, improvizatsiya va og‘zaki ijro mahorati masalalariga, shuningdek, bugungi kunda baxshichilik san’atining ahamiyati haqida ma’lumot beriladi. Milliy madaniyatimizni saqlash va rivojlantirishda baxshichilik san’atining o‘rni yoritiladi.

Kalit so‘zlar: xalq og‘zaki ijodi, baxshi, baxshilik san’ati, xalq dostonlari, dostonchilik maktablari, milliy madaniyat, tarixiy voqealar, improvizatsiya, madaniy meros.

Annotation This article discusses the art of baxshichilik, an important part of Uzbek oral folk tradition. It explores the unique features of baxshichilik, the origins of the word baxshi, and its various interpretations. Special emphasis is placed on the tradition of epic storytelling in baxshi performances, the preservation of historical events, improvisational skills, and performance techniques. Additionally, the article provides information on the significance of baxshichilik today and its contemporary state. It highlights the role of baxshichilik in preserving and developing national culture.

Keywords: Baxshichilik, baxshi, oral folk tradition, Uzbek epics, epic storytelling, baxshi performers, national culture, historical events, origin of the word baxshi, performance techniques, improvisation, cultural heritage.

Аннотация В данной статье рассказывается о бахшичилик — важном направлении устного народного творчества узбекского народа. Подробно рассматриваются уникальные особенности бахшичилик, происхождение слова «бахши» и его различные толкования. Особое внимание уделяется традиции эпического повествования в творчестве бахши, сохранению исторических событий, мастерству импровизации и исполнительскому стилю. Также представлена информация о значении искусства бахшичилик в современном мире и его актуальном состоянии. Статья раскрывает роль бахшичилик в сохранении и развитии национальной культуры.

Ключевые слова: бахшичилик, бахши, устное народное творчество, узбекские дастаны, эпическое повествование, бахши-исполнители, национальная культура, исторические события, происхождение слова «бахши», исполнительский стиль, импровизация, культурное наследие.

KIRISH. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lib, xalqimizning madaniy merosi va milliy o‘zligini aks ettiruvchi boy manbalardan biridir. Ushbu ijodning ajralmas qismi bo‘lgan baxshichilik san’ati o‘zbek xalqining tarixi, madaniyati va badiiy tafakkurining yorqin namunasi sifatida maydonga chiqqan. Baxshilar dostonlar, xalq qo‘shiqlari va afsonalarni ijro etish orqali nafaqat madaniyatimizni boyitgan, balki xalqning ma’naviy ehtiyojlarini qondirib, uni birlashtiruvchi kuchga aylangan. Baxshichilik san’ati xalq og‘zaki ijodining turli shakllarini o‘zida jamlagan holda, nafaqat san’atning bir turi, balki milliy qadriyatlar va an’analarni asrab-avaylash vositasi sifatida ham xizmat qilgan. Bu san’at asosan o‘zbek xalqining og‘zaki ijodiyoti orqali o‘tmishdagi voqealarni eslash, kelajak avlodlarga ulug‘vor tarix va madaniyat haqida ma’lumot yetkazish vazifasini bajaradi. Baxshilar ijro etgan dostonlar qahramonlik, muhabbat, do‘stlik va insoniy qadriyatlarni ulug‘lab, xalq orasida ma’naviy birlikni mustahkamlashga yordam beradi. O‘z navbatida milliy madaniyatimizning chuqur ildizlarini anglash va ularni asrab-avaylash mas’uliyatini yana bir bor his qilishga undaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Shu o‘rinda baxshi so‘zining kelib chiqishi va uning ilmiy adabiyotlarda tarqalgan variantlariga e’tibor berib o‘tamiz. Baxshi so‘zining kelib chiqishi haqida turli xil talqinlar mavjud. Bu so‘zning turli madaniy va tarixiy manbalarga asoslangan versiyalari quyidagilar:

1. Fors-tojik tilidan kelib chiqqan talqin: Baxshi so‘zi forsha “bakhsh” (ulush, bo‘lim) so‘zidan olingan deb hisoblanadi. Ushbu talqinga ko‘ra, baxshi xalq orasida qo‘shiqlar va dostonlarni ijro etib, ma’naviy ulush beruvchi shaxs sifatida ko‘rilgan.

2. Turkiy til manbayi: Baxshi so‘zi qadimgi turkiy tildagi "baqshi" yoki "baqshy" so‘zidan kelib chiqib, "murabbiy", "donishmand", "bilimdon" ma’nosida qo‘llanilgan. Bu talqin baxshilar faqat ijrochilar emas, balki xalq orasida bilim va ma’naviyat tarqatgan shaxslar bo‘lganini ko‘rsatadi.

3. Buddaviy madaniyat talqini: Baxshi so‘zi budda madaniyatidagi "bakshi" yoki "bikshu" so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, bu "ruhiy o‘qituvchi" yoki "muqaddas bilimlarni biluvchi" ma’nosini bildirgan. Bu qadimiy madaniy ta’sirlar Markaziy Osiyo xalqlari hayotida chuqur iz qoldirgan [6, 23-28].

Yuqorida ta’kidlanganidek, xalq og‘zaki ijodida baxshilik alohida professional san’at bo‘lib, u maxsus tayyorgarliksiz bo‘lmagan. Baxshilik avloddan avlodga, ya’ni ustozdan shogirdga meros bo‘lib o‘tgan. Natijada yurtimizda bu san’atning turli maktablari yuzaga kelgan. Quyida ularning eng mashhurlariga to‘xtalib o‘tamiz.

1. Bulung‘ur dostonchilik maktabi. Bu maktab vakillari qahramonlik dostonlarini ijro etish bilan mashhur bo‘lganlar. Sodda, yuksak, o‘ta an‘anaviy, nisbatan arxaik bo‘lgan qahramonlik eposi uslubi bu dostonchilarning poetik yo‘li hisoblangan. Bulung‘ur dostonchilik maktabining so‘nggi iste‘dodli vakili Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li hisoblanadi, undan “Alpomish”, “Yodgor”, “Yusuf bilan Ahmad”, “Malika ayyor”, “Mashriqo”, “Zulfizar”, “Balogardon”, “Intizor”, “Nurali”, “Jahongir”, “Murodxon”, “Rustam”, “Shirin bilan Sliakar”, “Ra‘no bilan Suxangul”, “Zevaxon” kabi ajoyib dostonlar yozib olingan. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li XIX asrda Yo‘ldosh, Qo‘ldosh, Suyar shoir nomi bilan mashhur bo‘lgan uch aka-ukaning kattasi Yo‘ldosh Mulla Murod o‘g‘lining shogirdidir. Yo‘ldosh shoir mashhur Yo‘ldoshbulbulning shogirdi bo‘lgan. O‘z navbatida XVIII asrning II yarmida yashagan Muhammad shoir Yo‘ldoshbulbulga ustozlik qilgan. Bu maktab Amin baxshi, Chini shoir, Tovbuzar shoir, Qurbonbek shoir, Sultonmurod, Yo‘ldoshbulbul, Yo‘ldosh, Qo‘ldosh, Suyar, Rahimbulbul, Jo‘ra, Fozil shoir, Yorlaqab kabi o‘nlab dostonchilarni birlashtirgan. Bu maktab vakillari Farg‘ona vodiysidagi o‘zbek dostonchilariga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatganlar. Epik san‘atning ikkinchi bir muhim markazi qo‘rg‘on dostonchilik maktabi bo‘lib, uning eng so‘nggi iste‘dodli vakillari Ergash Jumanbulbul o‘g‘li (1868—1937) va Po‘lkan shoirlar (1874-1941) hisoblanadi. Bu talantli san‘atkorlardan “Alpomish”, “Yakka Ahmad”, “Oysuluv”, “Kuntug‘mish”, “Qironxon”, “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”, “Yunus pari”, “Misqol pari”, “Gulnor pari”, “Xushkeldi”, “Hasanxon”, “Chambil qamali”, “Dalli”, “Ravshan”, “Avazxon”, “Qunduz bilan Yulduz”, “Xoldor-xon”, “Elomon”, “Berdiyor otaliq”, “Zamonbek”, “Xidirali elbegi” kabi dostonlar yozib olingan [1, 237-240].

2. O‘zbekistonning janubida yashovchi ko‘pgina baxshilar Sherobod dostonchilik maktabi bilan bog‘liqdir. XIX asrning II yarmi va XX asr boshlarida yashagan bu maktabning mashhur vakili Shernazar Beknazar o‘g‘li bir qancha shogirdlar yetishtirgan. Mardonaqul Avliyoqul o‘g‘li, Umir Safar o‘g‘li, Normurod baxshi, Ahmad baxshi, Nurali Boymat o‘g‘li, Mamadrayim baxshi, Bo‘riboy Ahmad o‘g‘li, Yusuf O‘tagan o‘g‘li kabi o‘nlab dostonchilar shu maktabga birlashadi va ulardan bir qancha dostonlar yozib olingan. Bu baxshilar repertuariga nazar tashlar ekanmiz, dostonchilikning nisbatan quyi bosqichlariga, badiiy tafakkurning uncha rivojlanmagan shakllariga duchkelamiz. Surxondaryo, Qashqadaryo, ba‘zan Janubiy Tojikiston baxshilari o‘zaro doimiy aloqada bo‘lgan va ularning ko‘pchiligi Sherobod bilan bog‘lanadi. Bu maktab vakillari repertuaridagi ayrim dostonlar (masalan, “Oltin qovoq”, “Malla savdogar”, “Ollonazar Olchinbek” kabilar) boshqa joylardagi baxshilar repertuarida uchramaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. O‘zbek baxshilari ijodini, xususan baxshichilik san‘ati o‘rganish ishlari ko‘pgina olimlarimiz tomonidan amalga oshirilgan. Doston ijrochilari va ijodkorlari haqidagi materiallarni o‘rganishishlarini folklorshunos olimlar H.Zarif, M.Afzalov, M.Alaviyalardan so‘ng T.G‘oziboev «Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li» (1968), O.Sobirov «Islom Nazar o‘g‘li» (1967), «Umir shoir Safarov» (1982), T.Mirzayev «Xalq baxshilarining epik repertuari» (1979), M.Murodov «Sarchashmadan tomchilar» (1986), M.Qo‘shmoqov «Chechanlikda so‘zda suvdayin oqib» (1978), «Baxshilar xazinasi» (1981) kabi monografiyalari bilan davom

ettirdilar. Ularda baxshichilik san’atining o‘ziga xos xususiyatlari, ustoz-shogird munosabatlari, ayrim yetakchi baxshilarning ijodi atroflicha yoritilgan [1, 33].

O‘zbek baxshichilik san’atida ko‘plab mashhur baxshilar o‘z mahorati va ijodi bilan ajralib turadi. Ularning ijodi xalq orasida yuksak hurmat va ehtirom bilan qarshi olingan. Jumladan, o‘zbek xalq qahramonlik eposi haqida fikr yuritilganda, avvalo, “Alpomish” dostoni tilga olinadi. Baxshilardan bu doston 30 dan ortiq variantlarda to‘liq yoki parchalar tarzida yozib olingan. Ammo ular orasida eng mashhur va mukammal nusxa 1928-yilda Mahmud Zarifov tomonidan taniqli olim Hodi Zarif rahbarligida yozib olindi. Qizig‘i shundaki, dostonning o‘g‘uz, qipchoq, oltoy, qo‘nqiroq versiyalari orasida ham Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li aytgan nusxa folklorshunos olimlar tomonidan eng mukammali sifatida tan olingan. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining nomi chiqqan baxshilar o‘rtasida munosib hurmatga ega bo‘lishi bejiz emas, albatta. Bu hurmat tinimsiz mehnat, favqulodda xotira egasi bo‘lish, hayot tajribasini aytilayotgan asarga singdirish, mahorat va bukilmas iroda mahsuli ekani oddiy haqiqatdir. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining o‘nlab dostonlari xalq og‘zaki ijodi turkumida yuzlab bosma toboqlarda nashr etildi. Bugungi kunda baxshidan yozib olingan terma va dostonlar, uning ijodi tahlil qilingan kitob va maqolalar soni 500 ga etdi. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li 1955-yilda 83 yoshda o‘z qishlog‘ida vafot etdi. Xullas, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li o‘zbek dostonchiligida mashhur va ulkan baxshi sifatida shuhrat topgan xalqimizning asl farzandidir.

2. Islom Nazar o‘g‘li 26 yoshda mustaqil baxshi darajasiga yetishdi. Baxshi o‘z xotiralarida Jumanbulbul bilan uchrashganini eslaydi. Ulkan dostonchi Emazar baxshiga qarab: “Siz shogirdning aslini topib olibsiz, ishqibozligi ham ancha zo‘rga o‘xshaydi”, - degan ekan. Haqiqatan ham, Islom shoir, birinchidan, xotirasi kuchli va badihago‘y edi; ikkinchidan, ovozi nihoyatda yoqimli va eshitishli edi; uchinchidan, har safar doston aytishdan oldin tinglovchini do‘mbira chertib, sel qilib olar ekan, sozning bu jo‘rligi doston ijrosi davomida ham davraga zavq berib turar edi. Xullas, Islom shoirning doston aytish mahorati olimlarning eslashiga qaraganda, musiqiyli, mayinligi, voqealarning aniq va sodda tarzda aks ettirilishi, badihago‘yli, o‘rni kelganda kulgili ifodasi bilan ajralib turar ekan. Ovozning shirasi doston fayziga fayz bag‘ishlar ekan. Shuning uchun Islom shoir aytgan 28 ta doston va son-sanoqsiz termalarini hamqishloqlari, qo‘shni hududdan kelgan ishqibozlar maroq bilan tinglaganlar.

Uning hayoti va ijodi atoqli folklorshunos olimlar Hodi Zarifov, Muzayyana Alaviya, Mansur Afzalov, Oxunjon Sobirov tomonidan o‘rganilgan. Islom shoirdan yozib olingan, nashr etilgan badiiy asarlar, uning ijodiga bag‘ishlab nashr qilingan kitoblar, maqolalar soni uch yuzdan ko‘p. Baxshidan meros bo‘lib qolgan dostonlarni xalqimiz hamon sevib o‘qimoqda.

3. Ergash Jumanbulbul o‘g‘li deganda “Ravshan”, “Kuntug‘mish” dostonlari ko‘z oldimizga keladi. Baxshilar “Ravshan”ni Ergashning otasi Jumanbulbul uch marta kuylagan dostoni deb atashgan ekan. Ergash mana shunday mashhur oilada 1868-yilda dunyoga keldi. Shu hududda yashagan Sulton kampir, buvisi Tilla kampirdan tortib, bobosi Mulla Xolmurod, otasi Jumanbulbulgacha doston aytishgan, o‘ziga xos termalar ijod qilishgan. Bu oila Nurota

tumanidagi Qo‘rg‘on qishlog‘ida istiqomat qilgan. Folklorshunoslikda Qo‘rg‘on dostonchilik maktabi deb nomlanishda qishloq nomidan ko‘ra Jumanbulbul oilasi xizmati ko‘proq edi.

Ergash Jumanbulbul o‘g‘li ijodi o‘tgan asrning 20-yillaridan fanga ma‘lum bo‘ldi. Undan Hodi Zarif, G‘ozi Olim Yunusov, Muhammad Iso Ernazar o‘g‘li kabi olim va ziyolilar 33 nomdagi asarlarni yozib olishgan. Baxshi haqidagi maqolalar soni esa 200 ga yaqin. O‘zbek baxshilaridan birortasi Ergash shoirdek 5 jildlik asarlar to‘plamini nashr qilishga musharraf bo‘lgan emas. O‘zbek xalqi tarixidagi yorqin sahifalar aks etgan “Oysuluv” dostoni ham Ergash Jumanbulbul og‘zidan ertak holida yozib olingan [2, 188-207].

Baxshilik san‘ati: tarix va bugun.

Hozirgi kunda baxshichilik san‘ati nafaqat o‘zbek xalqining madaniy merosi sifatida, balki milliy o‘zlikni anglash, ma‘naviy tarbiya va dunyo miqyosida milliy madaniyatni targ‘ib etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Baxshichilikning bugungi ahamiyatini quyidagi jihatlar orqali tahlil qilish mumkin:

1. Milliy merosni asrash va davom ettirish

Baxshichilik san‘ati xalqning tarixi, urf-odatlar, qadriyatlari va qahramonlik ruhini o‘zida mujassam etgan dostonlarni avlodlardan avlodga yetkazishda muhim rol o‘ynaydi. Bugungi kunda bu san‘at YUNESCO ning insoniyatning nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lib, uning xalqaro miqyosda tan olinishi milliy madaniyatni saqlash va targ‘ib etish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

2. Yoshlarga ma‘naviy tarbiya berish

Baxshichilik san‘ati dostonlar orqali yoshlarda qahramonlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, sadoqat va insoniylik kabi fazilatlarni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Xalq dostonlarida aks etgan hikmatli so‘zlar va qahramonlar hayoti yosh avlodga ibrat bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa bugungi kunda ma‘naviy va ma‘rifiy tarbiyaning muhim qismidir.

3. Zamonaviy san‘at va madaniyatda o‘z o‘rni

Baxshichilik san‘ati zamonaviy madaniy tadbirlarda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmayapti. Baxshilar ishtirokidagi doston kechalari, xalqaro festivallar va konsertlar milliy san‘atimizni dunyo miqyosida tanitmoqda. Baxshilarning ijrosi orqali o‘zbek musiqasi va she‘riyati butun dunyo xalqlari orasida qiziqish uyg‘otmoqda.

4. Turizmni rivojlantirishdagi roli

Bugungi kunda baxshichilik san‘ati turizm sohasi bilan chambarchas bog‘liq. O‘zbekistonning madaniy-tarixiy sayyohlik dasturlarida baxshilar chiqishlari alohida o‘rin egallaydi. Turistlar baxshilarning jonli ijrosini tinglash orqali o‘zbek xalqining boy madaniyati bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo‘lmoqdalar.

5. Baxshichilik maktablarining rivojlanishi

Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda baxshichilik san‘atini rivojlantirish va yangi avlod baxshilarini tayyorlash maqsadida maxsus maktablar, to‘garaklar va kurslar faoliyat yuritmoqda. Bu muassasalar orqali yosh ijrochilar xalq dostonlari, kuy va ijro uslublarini o‘rganmoqda.

6. Xalqaro miqyosdagi e’tirof va targ‘ibot

Baxshichilik san’ati xalqaro festivallar va madaniy forumlarda namoyish etilmoqda. Bu esa nafaqat o‘zbek xalqining boy madaniyatini dunyo hamjamiyatiga tanitish, balki milliy san’atning global ahamiyatini oshirish imkonini beradi [9, 12-17].

XULOSA. Baxshichilik san’ati o‘zbek xalq og‘zaki ijodining ajralmas va noyob qismi bo‘lib, milliy madaniyatni saqlash, avlodlar o‘rtasida uzviy bog‘liqlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Baxshilar tomonidan ijro etilgan dostonlar va xalq qo‘shiqlari nafaqat xalq tarixini eslatib turuvchi, balki uni boyituvchi ma’naviy xazinadir. Baxshi so‘zining turli xil kelib chiqish talqinlari ushbu san’atning qanchalik qadimiy va keng qamrovli ekanini ko‘rsatadi. Baxshilar o‘z ijodi orqali tarixiy voqealar, qahramonliklar va xalq e’tiqodlarini saqlab qolish bilan birga, ularni jonli tarzda yangi avlodlarga yetkazishda ham muhim rol o‘ynagan. Ularning ijrosi milliy cholg‘u asboblari va improvizatsion uslublar bilan uyg‘unlashib, tinglovchilarga estetik zavq bag‘ishlab kelgan. Bugungi kunda baxshichilik san’ati xalqaro miqyosda tan olinmoqda va zamonaviy madaniy tadbirlarda munosib o‘rin egallamoqda. Shu bilan birga, bu san’atni asrab-avaylash, o‘rganish va keltusi avlodlarga yetkazish uchun muhim ishlarni amalga oshirish zarur. Baxshichilik faqat bir ijodiy yo‘nalish emas, balki xalqning tarixiy xotirasi va milliy o‘zligini ifoda etuvchi boy ma’naviy merosdir. Shunday ekan, baxshichilik san’ati madaniy hayotimizda o‘z o‘rnini yo‘qotmasligi uchun bu sohada ishlayotgan baxshilarni qo‘llab-quvvatlash, yosh avlodni ushbu san’atga qiziqtirish va milliy qadriyatlarimizni targ‘ib etishda davom etish muhimdir. Bu esa milliy madaniyatimizning bardavomligini ta’minlashning eng samarali yo‘llaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Safarov, O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Musiqa nashriyoti, 2010.
2. Madayev, O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010.
3. Qodirov, H. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. - Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2007.
4. Sodiqova, G. Baxshichilik san’ati: tarixi va rivojlanishi.- Milliy madaniyat ilmiy jurnali, 3(5), 45–52, 2015.
5. Yo‘ldoshev, M. O‘zbek dostonchilik an’analari va baxshilar ijodi. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
6. Karimov, A. Baxshi so‘zining kelib chiqishi va uning ma’nosi haqida. - Sharq madaniy merosi jurnali, 2(1), 23–28, 2018.
7. Turdiyev, N. O‘zbek xalq baxshilari va ularning ijodi. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014.
8. UNESCO. Bakhshi Art of Uzbekistan.- Retrieved from unesco.org, 2020.
9. Rasulova, Z. Milliy madaniyatni saqlashda baxshilarning o‘rni. - Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar jurnali, 4(7), 12–17, 2021.
10. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi. Baxshichilik san’atini rivojlantirish dasturi. - Toshkent: Madaniyat vazirligi nashriyoti, 2022.
11. Safarov, B. O‘zbek xalq dostonlari va baxshichilik an’anasi. - Samarqand: SamDU nashriyoti, 2016.
12. Ergash Jumanbulbul o‘g‘li. Xalq baxshilarining ijodiy merosi. - Nukus: Qoraqalpoq adabiyoti, 2013.